



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLYIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

ИЖТИМОЙ СОҲАНИ
МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ КОНТЕКСТИДА
ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИ:
МУАММО ВА ИСТИҚБОЛЛАР

РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ



шахсларнинг эътиқоди ва хатти-ҳаракатларига таъсир кўрсатиш назарда тутилади.

Бизнинг фикримизча экология, ўқитиладиган фан сифатида барча экологик муаммолар бўйича аниқ ва тўлиқ маълумотларни ўзида мужжасамлаштириб, мавжуд муаммоларни ечиш, уларнинг олдини олиш йуллари, чора-тадбирларини белгиловчи маёқ вазифасини бажариши лозим. Бизнингча инсонларни экологик онгли қарорларни қабул қилишга ўргатиш, экологик таълим ва саводхонликнинг асосий мазмунини ташкил қилиб, ҳар қайси инсоннинг экологик муаммоларни юзага келишида ва атроф-муҳитнинг зарарланишига уз ҳиссаси борлигини англаш, тушуниб етишга ўргатади.

Экологик билимларни ўқитишда позитив ҳолда ёндошиш зарур. Шу сабабли экологик таълимнинг самарадорлигини таъминлаш учун уни планетамиз аҳолисининг барча қатламларига йўналтириш лозим. Бизнинг аҳолимиз экология ҳақида нимани билади ?, «Экологик хавф нима ?, каби мавзуларга доир бир қатор, педагоглар иштирокидаги мулоқот-дискуссияларнинг якуни табиатни муҳофаза қилиш зарур ва инсон атроф-муҳитга негатив таъсир кўрсатмоқда деган хулосаларга олиб келади

Аҳолининг кўпчилик қисми атроф-муҳитнинг ўзи нима ? Унинг асосий компонентлари нималар, бу компонентлар бир-бири билан қандай боғланган, уларнинг ҳар бирига ва алоҳида бутун яхлит тизимига инсоннинг таъсири қандай, шунингдек, инқироз ҳолатининг ҳақиқий сабаблари нимада ва экологик вазиятни қандай қилиб ижобий томонга ўзгартириш ҳақидаги тушунчалар, билимларга эга эмаслигини таъкидлашимиз зарур.

Бизнинг фикримизча экологик билимлар барча ихтисосликлар бўйича мутахассисларни тайёрлашнинг ажралмас қисми булиши зарур. Шунингдек таълим тизими ходимлари ўз педагогик фаолиятларининг «экологик мазмуни» ни тушунган ҳолда таълим жараёнидаги барча фанларни ўқитишда экологик билимларни интеграциялаш, уйғунлаштиришга эришмоғлари муҳим аҳамият касб этади.

Экологик билимларнинг интегратив характери таълим жараёнини янгидан ташкил этиш имкониятини беради.

- Биринчидан бирор бир ўқув предмети йўқки улар чегарасида экологик билимларга жой бўлмаса.

- Иккинчидан экологик таълим беришни таълим муассаларидан ташқарида яъни оммавий экскурсиялар, сайрлар, оромгоҳлар, тематик ҳафталар, экспедициялар шаклида ташкил қилиш мумкин.

Экологик билимларнинг интегратив характери инсонпарварлик ғояларга асосланган , ҳар томонлама шаклланган бутун бир яхлит дунёқарашни пайдо бўлишига бетақрор имконият яратади.

Экологияни ўқитиш ва унинг мазмунида : худудий ва этно-маданий хусусиятлар, шунингдек алоҳида ижтимоий, профессионал ва маълум ёш давридаги жамоалар, гуруҳларнинг ўзига хос қизиқишлари ва истаклари ҳисобга олинса, бу вазифа жуда қизиқарли ва ҳар томонлама қамраб олувчи ҳолат касб этади.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Saidnazarova G., Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim omillaridan biri yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashdan iborat. Inson shaxsi haqida gap ketganda albatta ko'z o'ngimizda komillikka intilgan ma'naviy jihatdan yetuk jamiyatning taraqqiy etishiga munosib hissa qo'sha oladigan yurt ravnaqining buguni va ertasini o'ylaydigan shaxsni keltiramiz. Shu o'rinda pezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

Pedagogik madaniyat –o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatlar jarayonida zarur bo'lgan umumiy axloqiy qoidalar majmuasi, pedagogning meyoriy-ma'naviy qarashlarga asoslangan odobidir. Ma'lumki o'qituvchilarda ma'naviy –axloqiy, xususan, pedagogik qiyofasini shakllantirish bo'yicha o'qituvchi - tarbiyachining olib boradigan ishlari murakkab va ko'p qirralidir.

Pedagogik madaniyat imkoniyat yaratgan pedagogik tajribalarni egallab olish orqali ko'p qirrali munosabatlar va muammolarni vujudga keltirishga yordam beradi, o'zini anglashni, o'zini takomillashtirishni ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat muammolari bo'yicha F.N.Gonobolin, N.V.Ko'zmin, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bu tadqiqotlarda pedagogik faoliyatning turli xil sifatlari va ko'rsatkichlari o'rganilgan va pedagogik faoliyat orqali o'qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyatini anglaydilar.

E.A.Grishin pedagogik madaniyatni ifoda etib, o'qituvchining quyidagi kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini ko'rsatadi:

- umumiy bilimdonlik;
- o'z fanini bilish;
- pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib boorish;
- pedagogik kasbini sevish;
- odamiylik, haqiqatgo'ylik va talabchanlik;
- ko'zatuvchanlik, e'tiborlilik va odoblilik.

V.A.Slastelin pedagogik madaniyatning integral ko'rsatkichlari deb quyidagilarni hisoblaydi:

- mutaxassislik sharafi va g'ururini his etish;
- jamiyatga xizmat qilish shakli sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi.

V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyat madaniyati tizimiga quyidagilarni kiritadi: Ijodiy individuallik- sezgi, farosat, odob, intuistiya. V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyatga ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Pedagogik mahoratga u pedagogik mahoratlilikni kiritib, uni pedagogik madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi.

Pedagogik madaniyatning muhim tashkil etuvchilari sifatida V.I.Pisarenko quyidagilarni ko'rsatadi:

- intelegentlilik;
- bilimlar doirasining kengligi;
- kasbi bo'yicha bilimlarining chuqurligi;
- ilmiy va ijtimoiy ma'lumotlar oqimida yo'l topa olish mahorati;
- pedagogik faoliyatda bilim va mahoratlardan foydalana bilishi.

Pedagogik madaniyat muamolarini o'rganish. Bu tizimning quyidagi tashkiliy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkoniyat beradi.

O'qituvchining shaxsiy kasbiy pedagogik yo'nalganligi. Bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonning uning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g'oyalari orqali pedagog faoliyatni insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to'plamidan iborat bo'ladi.

Pedagogik jarayoni tashkil etishda o'qituvchining shaxsi kasbiy pedagogik yo'nalganligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

G'oyalarini (pedagogik vazifalarni keng ko'ra olishi, pedagogik fikrlashi, rivojlanishi, o'zini rivojlantirish bilan shug'ullanishi, pedagogik o'zaro aloqalarda professionalizmga erishish)

Qiziqishlari (fanga qiziqishi, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirishi, o'qituvchilarning ta'lim darajasini va umumiy ma'naviy madaniyatlarini oshirish)

Qadriyatli yo'nalishlari (yuqori bilimga ega bo'lish, tarbiyalash, o'qituvchi va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarini faollashtirish)

Bu tadqiqotlarning umumiy xulosalariga asosan, kasbiy pedagogik yo'nalganlikning muhim omili bo'lib, o'qituvchining insonparvarligi, uning o'quvchilarga oliy qadriyat sifatida munosabati, o'quvchining shaxsi, qadr-qimmatini hurmat qilish, mehribonligini do'stona talabchanligini, befarqlik kamsitish va shavqatsizlikka yo'l qo'ymasligi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatga iste'dodi asosida sabablari va maqsadlari yotadi. Sabablari pedagogning pedagogik faoliyatiga anglab etgan holda intilishi bilan ifodalanadi.

Maqsadlari - bu o'qituvchining kasbiy faoliyatida natijalarga erishishga intilishlaridir.

Shunday o'qituvchi shaxsining kasbiy pedagogik yo'nalganligi o'zida uning g'oyalarini, qiziqishlarini, qadriyatli yo'nalishlarini birlashtiradi va pedagogning shaxsiy sifatlarini moslashtirishi haqiqiy imkoniyatlarini, uning o'quv tarbiyaviy jarayon talablari kasbiy darajasini aks ettiradi. Demak yoshlar va kasb tanlash kasbiy o'zlikni anglash va kasbiy shakllanishi sharoitida kasbiy qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarning yechimini topishi lozim. Aks holda kasbiy madaniyat bosqichlari o'rtasidagi uyg'unlik yo'qoladi va mutaxassis talabga javob bermaydi. Bo'lajak o'qituvchilarda asosan yuksak pedagogik madaniyatning mavjudligi shu bilan o'lchanadiki u tinib-tinchimaydigan shaxs bo'lib doim izlanishda bo'ladi. Dars-mashg'ulotlarini bir xil usulda emas balkim har bir mavzuga mos holda turli xil metod va vositalardan foydalanishi bundan tashqari kiyinish va muloqot madaniyatini ham alohida

e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017
3. Sh. Qurbonov. Ta'limning yangi qadiriylari. "Ma'rifat" 25-sentyabr 1999., 75-76 son.
4. M. Ochilov. O'qituvchi odobi. T., 1997 yil.
5. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T., "O'qituvchi", 1995 yil.
6. A. Munavvarov. Pedagogika. T., "O'qituvchi", 1996 yil.

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Б.Т.Хамраев

БухМТИ Жисмоний тарбия кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада бўлажак ўқитувчиларда касбий эътиқодни шакллантиришнинг муҳим масалалари очиб берилган. Касб, касбий маданият ҳамда касбий эътиқод тушунчалари кенгрок ёритиб берилган.

Таянч тушунчалар: Касб, касбий маданият, касбий эътиқод, касбий маҳорат, касбий мотивация.

В этой статье раскрывают важные проблемы в установлении профессиональных убеждений. Профессиональное культуре и профессиональные убеждения были широко распространены.

Опорные понятия: профессия, профессиональная культура, профессиональные убеждения, профессиональные навыки профессиональное мотивация.

This article reveals important issues in establishing professional convictions. Professional culture and professional convictions were widespread.

Supporting concepts: profession, professional culture, professional conviction, professional skills, professional motivation.

Жамият тараққиёти касб ва касбий маданият ҳамда моҳият мазмунида намоён бўлади. Касбий маданият-меҳнат фаолиятида намоён бўлади. Маданиятнинг бу қисмини ўзлаштириш кўрсаткичлари ва натижалари касбий лаёқатлилигини ишлаб чиқариш, фойдаланиш, ишчи ҳолатида сақлаб туриш қобилиятлар, касбий ҳаракатчилик: ўқиш, билимларни ва қурилмаларни қўллаш малакасини ошириш: ихтисосланиш қобилияти: ташкилий лаёқатлилиги-касбий фаолиятнинг масалалари тўғрисида ўз-ўзини ахборот билан таъминлаш, ўз хатти –ҳаракатларини биргаликдаги фаолияти бўйича ҳамкасб шериклари билан мувофиқлаштириш, қарор қабул қилишда ўз-ўзини идора қилиш, мустақиллик, якуний натижага йўналтирилган ўз-ўзини текшириш расмий шахслар билан иш юзасидан олиб бориладиган муносабатларни тузишда, ишга олиш ҳужжатларини расмийлаштиришдаги касбий, ахлоқий кўриниши иш жойини ва асбобларни тутиши, илғор тажриба, инновацион жараёнлар, замонавий технологияларни англаш ва қўллашнинг ижодий қобилиятларидир.

Касб тушунчаси - бирор нарсени ўрганиш, эгаллаш ҳамда фойда, ҳунар, машғулот каби маънони англатади. Ўрганиш, эгаллаш каби фаолиятлар касбий эътиқод тушунчасини шакллантиришнинг асоси саналади. Авваламбор, эътиқод тушунчасига эътибор қаратадиган бўлсак, эътиқод– ишонч, ишонч кўнгилда тасдиқлаш, маслақ демакдир. Қаттиқ ишонч, дилдан эътироф этилувчи тушунча, нуқтаи назар, қараш деб ҳам тушунилади[2,68]. Жумладан, эътиқод - бирор кимсага ёки нарсага бўлган ишонч, бирор кимса, воқеа, ҳодисага ишоч ва ихлос билан қараш ҳамда - инсон руҳиятининг қандайдир маълумоти, матни, ҳодисаси,воқеаси ёки шахсий тасавури ва ақлий ҳулосалари тўлиқ ва эътирозсиз қабул қилинадиган алоҳида ҳолати деб ҳам тушунилади.

Касб- кишининг меҳнат фаолияти, доимий машғулот тури иш турини малакали бажаришга имкон берадиган билим, маҳорат, тажрибани талаб этади. Касблар ичида меҳнат фаолиятининг энг тор соҳаси билан ажралиб турадиган ихтисосликлар бор. Масалан,ўқитувчи касбига математик,филолог, биолог, психолог ва бошқалар. Касб одатда, шахснинг асосий тирикчилик манбаи ҳисобланади.

Касб-маҳсус тайёргарлик ва иш тажрибаси натижасида маълум бир соҳада касбий фаолиятни

SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHART SHAROITLARI.....	177
D.Sattarova. МАКТАВГАЧА ТА’ЛИМДА ТА’ЛИМ-TARBIYA MASALALARI.....	178
М.О.Иргашева. РОСТ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УРОВНЯ МОЛОДЕЖИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА.....	179
Н.В. Погорелова, О.Ю. Денисова. ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗИТИВНОГО ИМИДЖА УЧРЕЖДЕНИЯ КУЛЬТУРЫ.....	180
Ў.Т.Бобоева ФАНЛАРАРО АЛОҚАДОРЛИК АСОСИДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ.....	185
Р.А.Литвак, Ю.Г. Голубкова,О.Е. Кутепова. ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ПРОСТРАНСТВО ВУЗА КАК ФЕНОМ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ.....	185
Р.А.Литвак, О.А.Аккерман, К.С.Ахметова КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ.....	187
Р.Шомуратов ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМНИ БОШҚАРИШДА АХБОРОТ ТИЗИМИГА НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК ЁНДАШУВ.....	189
И.Ф.Қаюмов. ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ.....	191
А.А.Азимов,Ф.Ф.Нуруллаев. МИЛЛИЙ АНЪАНА ВА ҚАДРИЯТЛАР УЙЎНЛИГИДА ЎЗ-ЎЗИНИ ТАРБИЯЛАШ.....	193
Н.В.Погорелова, А.А.Решетникова. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	196
A.Rajabov «MUSIQA O’QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA DIRIJORLIK FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI YOSHLAR HAYOTIDA MA’NAVIYATNING TUTGAN O’RNI».....	200
Z.Z. Shernazarov ABDULLA AVLONIYNING IJODIY FAOLIYATI.....	202
С.Умарова. МУҲАММАД АВФИЙ БУХОРИЙНИНГ «ЖАВОМЕЪ УЛ-ҲИКОЁТ» АСАРИДА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯГА ОИД МУЛОҲАЗАЛАР.....	204
M.Ismoilova INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO’NALISHLARI.....	207
У.Х.Абдуллаева. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШДА АЖДОДЛАР МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	208
Н.Ж.Бобомуродова, З.Ж.Фозилова. ЭКОЛОГИК САВОДХОНЛИК - ЭКОЛОГИК ИНҚИРОЗ КУШАНДАСИ.....	210
G.Saidnazarova.ВО’ЛАЖАК О’QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI.....	211
Б.Т.Ҳамраев БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА.....	213
М.Ш.Хожиева, Ш.И.Хакимова.ТАЛАБАЛАРДА МИЛЛИЙ ИФТИХОР ТУЙЎСУНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЗИДДИЯТЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ.....	216
М.А.Жунайдуллаев.ЁШЛАР ИЖТИМОЙЛАШУВИДА ВАТАНПАРВАРЛИК ВА МИЛЛИЙ – СИЁСИЙ МЕНТАЛИТЕТНИНГ АҲАМИЯТИ.....	218
Л.Л.Нуруллоев. ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИ – ЁШЛАР ТАРБИЯСИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ.....	221
S.S.Muxlisova BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QUV JARAYONINI TASHKIL QILISHDA NAMKORLIK STRATEGIYASI.....	223
М.Ходжаева. ПЕДАГОГИК МУЛОҚОТ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА.....	224
Г.И.Сафарова. МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ БИЛИМ МАЗМУНИ.....	225